



2022- YIL  
AVGUST

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ISTE'MOL SEKTORIDAGI  
INFLYATSIYA DARAJASI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BO‘YICHA UMUMIY ISTE‘MOL NARXLARI INDEKSI (INI), % DA


o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



O‘tgan yilning avgustiga nisbatan




■ 2020- yil avgust    ■ 2021- yil avgust    ■ 2022- yil avgust

2022- yilning avgust oyida iste‘mol bozorida narxlarning o‘rtacha darajasi **0,5 %** ga oshdi.

2022- yilning yanvar-avgustida iste‘mol bozorida narxlarning o‘shish sur‘ati **7,0 %** ga yetdi, o‘rtacha oylik o‘shish sur‘ati esa **0,8 %** ni tashkil etdi.

Yillik nisbatda (2021- yilning avgust oyiga nisbatan) iste‘mol sektorida narxlarning o‘shish sur‘ati **12,3 %** ni tashkil etdi.


## Yanvar-avgustda o‘rtacha oylik o‘shish sur‘ati



Eslatma: infografikada ko‘rsatkichlar keng doiradagi foydalanuvchilar uchun 0,01 % gacha aniqlikda keltirilgan. Keyingi o‘rinlarda, axborotni qabul qilishni osonlashtirish maqsadida, ko‘rsatkichlar 0,1 % gacha yaxlitlangan holda keltiriladi.


# YIG'MA INI DINAMIKASI, % DA

—●— 2020- yil —●— 2021- yil —●— 2022- yil



o'tgan yilning dekabriga nisbatan

o'tgan yilning mos oyiga nisbatan





# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA

o'tgan oyga nisbatan


2022- yil  
avgust



2021- yil  
avgust



2020- yil  
avgust



2022- yilning avgust oyida narxlar va tariflar oshishi bo'yicha yetakchilik oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli bo'lib, oy davomida ularning narxlari o'rtacha **0,7%** ga oshdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlar narxlari oy davomida har biri **0,4%** ga oshdi.

## MA'LUMOT UCHUN:

2021- yilning avgustida ham oziq-ovqat mahsulotlari oy davomida **0,7%** ga qimmatlashib, uchta asosiy guruhlar orasida narxlar oshishi bo'yicha yetakchi bo'lgan. Nooziq-ovqat mahsulotlar ushbu davrda **0,6%** ga, xizmatlar esa **0,2%** ga qimmatlashgan.

2020- yilning avgustida oy davomida narxlar oshishi bo'yicha yetakchilik nooziq-ovqat mahsulotlarga (**0,8%**) tegishli bo'lgan. Keyingi o'rinlardan xizmatlar (**0,4%**) va oziq-ovqat mahsulotlari (**0,3%**) joy olgan.

 OZIQ-OVQAT  
MAHSULOTLARI


 NOOZIQ-OVQAT  
MAHSULOTLAR

 XIZMATLAR


# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA

o'tgan yilning dekabriga nisbatan


2022- yil avgust



2021- yil avgust



2020- yil avgust



OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



NOOZIQ-OVQAT MAHSULOTLAR



XIZMATLAR

2022- yilning dastlabki sakkiz oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi **8,5 %** ga yetib, so'nggi uch yillikning ushbu davrida qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkich bo'ldi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlari 2022- yilning yanvar-avgusti davomida **1,2 %** ga oshdi.

Xizmatlar narxlarining o'sish sur'ati sezilarli darajada pastroq bo'lib, **4,0 %** ni tashkil etdi.

## TAQQOSLASH UCHUN:

2021 va 2020- yillarning yanvar-avgustida uchta guruh narxlari indeksi o'rtasidagi tafovut sezilarsiz darajada bo'lgan. O'tgan yilning oxiriga nisbatan narxlar oshishi bo'yicha yetakchilik 2021 va 2020- yillarning avgustida oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli bo'lgan. Narxlarning eng past o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-avgustida nooziq-ovqat mahsulotlarda (**4,2 %**) qayd etilgan bo'lsa, 2020- yilning yanvar-avgustida ushbu holat xizmatlarga (**4,0 %**) xos bo'lgan.

# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARINING INI, % DA

2022- YIL  
AVGUST

o'tgan yilning avgustiga nisbatan


2022- yil avgust



2021- yil avgust



2020- yil avgust



Oziq-ovqat mahsulotlari yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha yetakchilikni saqlab qoldi. Shunday qilib, joriy yilning avgustida o'tgan yilning avgustiga nisbatan ularning narxlari **16,3** % ga oshgan. Nooziq-ovqat mahsulotlar va pullik xizmatlar ushbu davrda mos ravishda **10,9** % va **7,1** % ga qimmatlashgan.

## TAQQOSLASH UCHUN:

2021 va 2020- yillarning avgust oyida ham oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining yillik nisbatda oshish darajasi nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlardan yuqori bo'lgan.


Shunday qilib, 2021- yilning avgustida oziq-ovqat mahsulotlari 2020- yilning avgustiga nisbatan **15,5** % ga oshgan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining o'sish sur'ati **8,0** % ni, xizmatlarniki esa **7,6** % ni tashkil etgan.

2020- yilning avgust oyida oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining yillik o'sish sur'ati **16,8** % ga yetgan. Ushbu ko'rsatkich nooziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlarda sezilarli darajada past bo'lgan bo'lib, mos ravishda **8,0** % va **7,5** % ni tashkil etgan.




# OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % DA


o'tgan oyga nisbatan




yanvar-avgustda o'rtacha oylik o'sish sur'ati



o'tgan yilning dekabriga nisbatan




o'tgan yilning mos oyiga nisbatan






# NOOZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI, % DA


o'tgan oyga nisbatan




yanvar-avgustda o'rtacha oylik o'sish sur'ati



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan









# PULLIK XIZMATLAR INI, % DA


o'tgan oyga nisbatan




yanvar-avgustda o'rtacha oylik o'sish sur'ati



o'tgan yilning dekabriga nisbatan



o'tgan yilning mos oyiga nisbatan



# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARI NARXLARI O'ZGARISHINING INI O'SISHIGA TA'SIRI TUZILMASI, f.d. da

o'tgan oyga nisbatan

2022- YIL AVGUST

+0,52 f.d.



2021- YIL AVGUST

+0,54 f.d.



2020- YIL AVGUST

+0,50 f.d.



\* shu yerda va keyingi o'rinlarda foiz darajasida.

Hisob-kitoblarga ko'ra, joriy yilning avgust oyida qisqa muddatli yig'ma INI o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi eng yuqori ta'sir ko'rsatdi. Ushbu guruh tovlari narxlarining o'zgarishlari hisobiga oylik yig'ma INI **0,29 f.d.** yuqoriladi.

Shu bilan birga, nooziq-ovqat mahsulotlarning ta'siri **0,14 f.d.** ga yetib, 2021 va 2020- yillarning avgust oyidagi ko'rsatkichdan past bo'ldi.




Xizmatlar narxlari o'zgarishlarining ta'siri pastroq darajada bo'lib, **0,09 f.d.** ni tashkil etdi hamda 2020- yilning avgustidagi mos ko'rsatkich bilan barobar va 2021- yilning avgustidagi ko'rsatkichdan **0,05** foiz bandga baland bo'ldi.

Shunday qilib, umumiy ta'sir darajasida ulushiga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari hissasiga **55,8** %, nooziq-ovqat mahsulotlar hissasiga **26,9** % va xizmatlar hissasiga **17,3** % to'g'ri keldi.

- OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI
- NOOZIQ-OVQAT MAHSULOTLAR
- XIZMATLAR

# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARI NARXLARI O'ZGARISHINING INI O'SISHIGA TA'SIRI TUZILMASI

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



- OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI
- NOOZIQ-OVQAT MAHSULOTLAR
- XIZMATLAR

Joriy yilning avgust oyida oziq-ovqat mahsulotlari o'tan yilning dekabriga nisbatan yig'ma INI o'sish sur'atiga ta'sir darajasi bo'yicha yetakchi o'rinni saqlab qoldi. Ularning hissasiga umumiy ta'sir darajasining **51 %** dan ortig'i to'g'ri keladi. Shunday qilib, oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi hisobiga 2022- yilning yanvar-avgustidagi yig'ma INI **3,58 f.d.** yuqorilagan bo'lsa, nooziq-ovqat mahsulotlar hissasiga **2,49 f.d. (35,7 %)**, xizmatlar hissasiga esa **0,91 f.d. (13,0 %)** to'g'ri keldi.

Ta'kidlash joizki, 2021 va 2020- yillarning yanvar-avgustida oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarning ta'siri sezilarli darajada past bo'lgan bo'lsa, xizmatlar narxlari o'zgarishlarining ta'siri joriy yilning yanvar-avgustidagi darajaga yaqin bo'lgan.

# TOVARLAR VA XIZMATLAR ASOSIY GURUHLARI NARXLARI O'ZGARISHINING INI O'SISHIGA TA'SIRI TUZILMASI

o'tgan yilning avgustiga nisbatan

**2022- yil AVGUST**

**+12,3 f.d.**

ta'siri, f.d. **+6,88**

**+3,77**

**+1,64**

ta'sir ulushi,  
% da

**56,0**

**30,7**

**13,3**

**2021- yil AVGUST**

**+11,1 f.d.**

**+6,55**

**+2,79**

**+1,76**

ta'sir ulushi,  
% da

**59,0**

**25,1**

**15,9**

**2020- yil AVGUST**

**+11,7 f.d.**

**+7,18**

**+2,77**

**+1,70**

ta'sir ulushi,  
% da

**61,6**

**23,8**

**14,6**

- OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI
- NOOZIQ-OVQAT MAHSULOTLAR
- XIZMATLAR

2022- yilning avgust oyida yillik nisbatdagi umumiy INI tuzilmasida ham oziq-ovqat inflyatsiyasining ta'siri yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi hisobiga 2022- yilning avgust oyida yillik nisbatdagi umumiy INI **6,88 f.d.** yuqorilab, umumiy ta'sir tuzilmasidagi ulushi **56,0 %** ni tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining oshishi 2022- yilning avgustida 2021- yilning avgustiga nisbatan INI o'sish sur'atiga **3,77 f.d.** ta'sir qilib, umumiy ta'sir darajasining **30,7 %** ini tashkil etdi.

Xizmatlar hissasiga umumiy ta'sir darajasining **13,3 %** i to'g'ri kelib, ular narxlarining oshishi hisobiga yillik nisbatdagi yig'ma ko'rsatkich **1,64 f.d.** yuqoriladi.





# MAQSADLAR BO'YICHA INDIVIDUAL ISTE'MOL TASNIFLAGICHI – 2018 (O'ZR MIIT – 2018) BO'LIMLARI BO'YICHA INI, % da

o'tgan oyga nisbatan


Nomi	2020- yil avgust	2021- yil avgust	2022- yil avgust
I. Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar	<b>100,3</b>	<b>100,7</b>	<b>100,6</b>
II. Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari	<b>100,7</b>	<b>100,4</b>	<b>101,5</b>
III. Kiyim va poyabzal	<b>100,2</b>	<b>100,3</b>	<b>100,3</b>
IV. Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari	<b>101,4</b>	<b>100,1</b>	<b>100,2</b>
V. Uy-ro'zg'or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko'rsatish	<b>100,4</b>	<b>100,4</b>	<b>100,6</b>
VI. Sog'liqni saqlash	<b>100,5</b>	<b>100,3</b>	<b>100,7</b>
VII. Transport	<b>101,3</b>	<b>101,4</b>	<b>100,1</b>
VIII. Axborot va aloqa	<b>100,2</b>	<b>100,2</b>	<b>100,1</b>
IX. Dam olish, sport va madaniyat	<b>100,3</b>	<b>100,4</b>	<b>100,9</b>
X. Ta'lim sohasidagi xizmatlar	<b>100,0</b>	<b>100,1</b>	<b>100,3</b>
XI. Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari	<b>101,3</b>	<b>101,3</b>	<b>102,0</b>
XII. Sug'urtalash va moliyaviy xizmatlar	<b>100,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
XIII. Maishiy tovarlar va xizmatlar, ijtimoiy himoya va turli tovarlar va xizmatlar	<b>100,5</b>	<b>100,4</b>	<b>100,9</b>




# O'ZR MIIT – 2018 BO'LIMLARI BO'YICHA INI, % da

avgust oyida o'tgan yilning dekabriga nisbatan


## I OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR




## II SPIRTLII ICHIMLIKLAR VA TAMAKI MAHSULOTLARI




## III KIYIMLAR VA POYABZAL




## IV TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG'I TURLARI




## V UY-RO'ZG'OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO'RSATISH



## VI SOG'LIQNI SAQLASH



## VII TRANSPORT




## VIII AXBOROT VA ALOQA






avgust oyida o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


## IX DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT



## X TA'LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR




## XI RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI



## XII SUG‘URTALASH VA MOLIVAVIY XIZMATLAR



## XIII MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOIIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR



2022- yilning avgustida O‘zR MIIT – 2018 asosiy bo‘limlari orasida narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” (XI) bo‘limiga (**2,0 %**) tegishli bo‘ldi.

2021- yilning dekabriga nisbatan boshqalarga qaraganda “Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari” (XI bo‘lim, **11,9 %**) va “Dam olish, sport va madaniyat” (IX bo‘lim, **10,3 %**) bo‘limlarida narxlar yuqori darajada qimmatlashdi.


Yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik restoranlar va mehmonxonalar xizmatlariga tegishli bo‘ldi (**19,5 %**).



# O'zR MIIT – 2018 BO'LIMLARI BO'YICHA INI, % da

2021- yil 2022- yil

avgust o'tgan yilning avgustiga nisbatan



**IZOH:** O'zR MIIT – 2018 tasniflagichi 2021- yildan INni hisoblash amaliyotiga joriy etilgan. Statistik maqsadlarda 2020- yil uchun INning O'zR MIIT – 2018 tuzilmasi bo'yicha qayta hisob-kitoblari amalga oshirildi. 2019- yil uchun O'zR MIIT – 2018 bo'limlari va guruhleri kesimidagi taqqoslama bazaning mavjud bo'lmaganligi sababli 2020- yilning avgust oyidagi yillik nisbatdagi INI (2019- yilning avgustiga nisbatan) mazkur tasniflagich bo'limlari va guruhleri kesimida shakllantirilmagan.





# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I) BO‘YICHA INI, % DA

avgust oyi o‘tgan oyga nisbatan


## DONLI EKINLAR VA YORMA MAHSULOTLARI




## GO‘SHT VA GO‘SHT MAHSULOTLARI



## BALIQ VA BOSHQA DENGIZ MAHSULOTLARI



## SUT, BOSHQA SUT MAHSULOTLARI VA TUXUM



## YOG‘LAR VA MOYLAR



## MEVALAR VA YONG‘OQLAR



## SABZAVOTLAR, ILDIZMEVALILAR VA DUKKAKLILAR



## SHAKAR, QANDOLAT MAHSULOTLARI VA DESERTLAR



## TAYYOR OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA BOSHQA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



## SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR



Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining mavsumiy pasayishi joriy yilning avgust oyida o‘tgan oyga nisbatan sezilarli darajada past bo‘ldi. Shunday qilib, oy davomida mevalar va yong‘oqlar **2,2 %** ga, sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar **0,5 %** ga arzonlashdi.


“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo‘limiga kiruvchi boshqa guruhlarda joriy yilning avgust oyida narxlarning oshganligi qayd etildi. Narxlarning eng yuqori oshish darajasi donli ekinlar va yorma mahsulotlari (**1,6 %**) hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlarda (**1,3 %**) qayd etildi.




# “OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I) BO‘YICHA INI, % DA

avgust o‘tgan yilning dekabriga nisbatan


## DONLI EKINLAR VA YORMA MAHSULOTLARI




## GO‘SHT MAHSULOTLARI




## BALIQ VA BOSHQA DENGIZ MAHSULOTLARI




## SUT, BOSHQA SUT MAHSULOTLARI VA TUXUM




## YOG‘LAR VA MOYLAR




## MEVALAR VA YONG‘OQLAR




## SABZAVOTLAR, ILDIZMEVALILAR VA DUKKALILAR




## SHAKAR, QANDOLAT MAHSULOTLARI VA DESERTLAR



## TAYYOR OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA BOSHQA MAHSULOTLAR



## SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR



2022- yilning yanvar-avgustida narxlar oshishi bo‘yicha yetakchi uchlikdan donli ekinlar va yorma mahsulotlari (**24,3 %**), shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (**21,6 %**) va yog‘-moy mahsulotlari (**10,7 %**) o‘rin oldi.

Ushbu davrda narxlarning pasayishi mavsumiy omil ta‘sirida faqatgina meva-sabzavot mahsulotlarida (**5,9-7,1 %** atrofida) qayd etildi.

# OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR” BO‘LIMI (I) BO‘YICHA INI, % DA

avgust o‘tgan yilning avgustiga nisbatan

## DONLI EKINLAR VA YORMA MAHSULOTLARI

2021-yil → 105,5

2022-yil → 130,1



## GO‘SHT VA GO‘SHT MAHSULOTLARI

2021-yil → 115,9

2022-yil → 108,9



## BALIQ VA BOSHQA DENGIZ MAHSULOTLARI

2021-yil → 110,0

2022-yil → 113,6



## SUT, BOSHQA SUT MAHSULOTLARI VA TUXUM

2021-yil → 111,1

2022-yil → 115,5



## YOG‘LAR VA MOYLAR

2021-yil → 145,3

2022-yil → 114,0



## MEVALAR VA YONG‘OQLAR

2021-yil → 121,3

2022-yil → 102,3



## SABZAVOTLAR, ILDIZMEVALILAR VA DUKKAKLILAR

2021-yil → 124,7

2022-yil → 115,2



## SHAKAR, QANDOLAT MAHSULOTLARI VA DESERTLAR

2021-yil → 115,7

2022-yil → 129,5



## TAYYOR OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA BOSHQA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI

2021-yil → 106,6

2022-yil → 110,0



## SPIRTSIZ ICHIMLIKLAR

2021-yil → 107,1

2022-yil → 111,8



2022- yilning avgust oyida “Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I bo‘lim) guruhlarida orasida yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni donli ekinlar va yorma mahsulotlari (**30,1 %**), shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (**29,5 %**), sut mahsulotlari va tuxum (**15,5 %**), hamda sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar (**15,2 %**) egalladi.



# ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % DA

## GURUCH VA GURUCH OQSHOG'I



## BUG'DOY UNI



## SUYAKLI MOL GO'SHTI



## QO'Y GO'SHTI



## SUT



## TUXUM



avgust o'tgan oyga nisbatan

avgust o'tgan yilning dekabriga nisbatan


avgust o'tgan yilning avgustiga nisbatan



# ALOHIDA TURDAGI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI INI, % DA

Davomi

## PAXTA YOG'I



## KUNGABOQAR YOG'I



## SARIYOG'



## SHAKAR



avgust o'tgan oyga nisbatan



avgust o'tgan yilning dekabriga nisbatan



avgust o'tgan yilning avgustiga nisbatan

**Asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan** (meva-sabzavot mahsulotlaridan tashqari) 2022- yilning avgust oyida uzun boshqoli (**4,7 %**) va yumaloq boshqoli (**3,2 %**) guruch, margarin (**3,2 %**), guruch oqshog'i (**2,8 %**), oliy navli (**2,4 %**) va 1- navli (**1,6 %**) undan tayyorlangan non, oq-qand (**1,6 %**), qo'y go'shti va shakar (**1,2 %**) narxlarining oshishi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oylik o'sish sur'ati o'rtacha darajasidan sezilarli darjada yuqori bo'ldi. 2021- yilning oxiriga nisbatan narxlar oshishi bo'yicha yetakchilik shakar va 1- navli undan tayyorlangan nonga (**1,5** barobar) tegishli bo'ldi. Ushbu mahsulotlar yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha ham (narxlarning o'sish sur'ati mos ravishda **1,6** va **1,5** barobar) yetakchilikni saqlab qoldi.

# ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % DA

○ 2020- yil avgust ○ 2021- yil avgust ● 2022- yil avgust

o'tgan oyga nisbatan



Mavsumiylik omili meva-sabzavot mahsulotlari narxlari o'rtacha darajasining pasayishiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazishda davom etdi. 2022- yilning avgustida oy davomida boshqalarga nis-

batan uzum (-12,6%), piyoz (-10,0%) va shaftoli (-8,4%) narxlari sezilarli darajada pasaydi. Narxlar oshishi bo'yicha yetakchi uchlikdan pomidor (18,4%), ko'katlar (12,1%) va bodring o'rin egalladi (10,6%).

# ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % DA

2020- yil avgust

2021- yil avgust

2022- yil avgust

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



2021- yilning dekabriga nisbatan 2022- yilning avgustida boshqalarga nisbatan baqlajon (-63,1 %), bodring (-60,4 %) va pomidor (-55,5 %) narxlari sezilarli darajada pasaydi.


Piyoz, sezilarli ustunlik bilan 2022- yilning yanvar-avgustida narxlar oshishi bo'yicha yetakchilikni saqlab qoldi va o'tgan yilning oxiriga nisbatan 1,9 barobarga qimmatlashdi.



# ALOHIDA TURDAGI MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI INI, % DA

● 2020- yil avgust ● 2021- yil avgust ● 2022- yil avgust

o'tgan yilning avgustiga nisbatan



2022- yilning avgustida meva-sabzavot mahsulotlari narxlar o'rtacha darajasi o'tgan yilning avgustidagi ko'rsatkichdan balandroq bo'ldi. Shunday qilib, mevalar va yong'oqlar yillik nisbatda **2,3 %** ga, sabzavotlar, ildizmevalilar va

dukkalilar **15,2 %** ga qimmatlashdi.

Yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha birinchilikni piyoz (**2,7** barobar) saqlab qolgan bo'lsa, narxlar pasayishi bo'yicha yetakchilik sabziga (**-34,6 %**) tegishli bo'ldi.

\*) tovar kuzatuv tanlanmasiga 2020- yildan kiritilgan. 2019- yil iyuliga nisbatan INI narxlarini taqqoslash uchun bazaning mavjud bo'lmaganligi sababli shakllantirilmagan.



# 2022- YIL AVGUST OYIDA ASOSIY OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIK NARXLARI O'ZGARISHLARINING YIG'MA INI (O'SISHI) PASAYISHIGA TA'SIRI, F.D.


## o'tgan oyga nisbatan

Joriy yilning avgust oyida donli ekinlar va yorma mahsulotlari (+0,13 f.d.), go'sht mahsulotlari (+0,09 f.d.) hamda shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (+0,04 f.d.) narxlarining oshishi hal qiluvchi inflyatsion omil bo'ldi.

Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining mavsumiy pasayishi inflyatsiyani tutib turuvchi omil bo'lib xizmat qildi. Ularning

hisobiga qisqa muddatli yig'ma ko'rsatkich **0,11 f.d.** pasaydi.

Bo'limga kiruvchi boshqa guruhlarining ta'siri sezilarsiz darajada bo'lib, umumiy hisobda jami **+0,09 f.d.** ni tashkil qildi.




**Jami ta'siri +0,24 f.d.**











- Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar
- Mevalar va yong'oqlar
- Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum
- Donli ekinlar va yorma mahsulotlari
- Go'sht mahsulotlari
- Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari
- Yog'lar va moylar
- Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar
- Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlar
- Spirtsiz ichimliklar

# 2022- YIL AVGUST OYIDA ASOSIY OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTLICHIMLIK NARXLARI O'ZGARISHLARINING YIG'MA INI (O'SISHI) PASAYISHIGA TA'SIRI, F.D.

o'tgan yilning dekabriga nisbatan



**Jami ta'siri +3,34 f.d.**

-  Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkakililar
-  Mevalar va yong'oqlar
-  Donli ekinlar va yorma mahsulotlari
-  Go'sht mahsulotlari
-  Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari
-  Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum
-  Yog'lar va moylar
-  Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar
-  Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlar
-  Spirtsiz ichimliklar

Hisob-kitoblarga ko'ra, donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining oshishi 2022- yilning yanvar-avgustidagi yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'sir ko'rsatgan hal qiluvchi inflyatsion omillardan biri bo'ldi. Ushbu guruh mahsulotlari narxlarining oshishi hisobiga 2022- yilning yanvar-avgustidagi yig'ma INI **1,99 f.d.** yuqoriladi.


Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar (**+0,62 f.d.**), go'sht (**+0,46 f.d.**) va yog'-moy (**+0,31 f.d.**) mahsulotlari narxlarining o'zgarishlari yig'ma ko'rsatkichga salmoqli ta'sir ko'rsatdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari narxlarining pasayishi hisobiga 2021- yilning dekabriga nisbatan yig'ma ko'rsatkich **0,58 f.d.** pasaydi.

2022- YIL AVGUST OYIDA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA SPIRTSIZ ICHIMLIKLER ASOSIY GURUHLARI NARXLARI O'ZGARISHINING UMUMIY INI O'SISHI (PASAYISHI)GA TA'SIRI, F.D. VA % DA\*


o'tgan yilning avgustiga nisbatan

Jami ta'siri **+6,5 f.d.**



- Donli ekinlar va yorma mahsulotlari
- Go'sht mahsulotlari
- Baliq va boshqa dengiz mahsulotlari
- Sut, boshqa sut mahsulotlari va tuxum
- Yog'lar va moylar
- Mevalar va yong'oqlar
- Sabzavotlar, ildizmevalilar va dukkaklilar
- Shakar, qandolat mahsulotlari va desertlar
- Tayyor oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari
- Spirtsiz ichimliklar

Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari oshishining ta'siri = **100 %**



“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” (I) bo'limiga kiruvchi tovarlar orasida 2022- yilning avgustida yillik nisbatdagi yig'ma INI o'sish sur'atiga donli ekinlar va yorma mahsulotlari narxlarining o'zgarishlari salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu guruh tovarlari narxlarining oshishi hisobiga yillik nisbatdagi INI **2,47 f.d.** (oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o'sish sur'ati jami ta'sirining **38,1 %** i yoki kuzatiladigan tovarlar va xizmatlar jami ta'sirining **20 %** i) yuqoriladi.

\* ta'sir ulushi hisob-kitoblarida ta'sir darajasi ko'rsatkichlari 0,1 f.d. gacha yaxlitlangan.

# “SPIRTLII ICHIMLIKLAR, TAMAKI MAHSULOTLARI” BO‘LIMI (II) BO‘YICHA INI, % DA



o‘tgan oyga nisbatan

Spirтли  
ichimliklar



Tamaki  
mahsulotlari



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

Spirтли  
ichimliklar



Tamaki  
mahsulotlari



o‘tgan yilning avgustiga nisbatan

Spirтли  
ichimliklar



Tamaki  
mahsulotlari



2022- yilning avgustida spirtli ichimliklar oy davomida **1,7 %** ga, shu jumladan, pivo **2,0 %** ga, aroq **1,7 %** ga, konyak **1,3 %** ga, vino **1,1 %** ga qimmatlashdi. Tamaki mahsulotlari oy davomida **1,1 %** ga, shu jumladan, sigaret **1,2 %** ga, boshqa tamaki mahsulotlari **0,8 %** ga qimmatlashdi.

2021- yilning dekabriga nisbatan spirtli ichimliklar **6,7 %** ga, shu jumladan, aroq **7,5 %** ga, pivo **6,8 %** ga, vino **4,7 %** ga, konyak **4,1 %** ga qimmatlashgan. Tamaki mahsulotlari 2022- yil boshidan **5,7 %** ga, shu jumladan, sigaret **5,5 %** ga, boshqa tamaki mahsulotlari **6,1 %** ga qimmatlashdi.

Yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik spirtli ichimliklarga (**12,1 %**) tegishli bo‘lsa, tamaki mahsulotlari ushbu davrda **7,7 %** ga qimmtlashdi.



2020- yil avgust

2021- yil avgust

2022- yil avgust



# “KIYIM VA POYABZAL” BO‘LIMI (III) BO‘YICHA INI, % DA



2020- yil avgust

2021- yil avgust

2022- yil avgust

# “TURAR JOY XIZMATLARI, SUV, ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI” BO‘LIMI (IV) BO‘YICHA INI, % DA




o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



## TURAR JOY UCHUN AMALDAGI IJARA HAQI \*




## TURAR JOYLARGA XIZMAT KO‘RSATISH, TA‘MIRLASH VA QO‘RIQLASH



## SUV TA‘MINOTI VA TURAR JOYLARNI SAQLAB TURISH BILAN BOG‘LIQ BOSHQA XIZMATLAR



## ELEKTR, GAZ VA BOSHQA YONILG‘I TURLARI



\*) kuzatuvga 2021- yilda kiritilgan.

Joriy yilning avgust oyida, aholiga kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida narxlarning barqarorligi fonida uy-joylarga xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun materiallar va bu boradagi xizmatlar narxlarida oshish qayd etilib, ularning narxlarida bir oyda mos ravishda **0,4 %** va **0,8 %** ga oshdi.

Uy-joy ijarasi bir oyda **0,4 %** ga oshdi.

2022- yilning yanvar-avgustida va yillik nisbatda ham narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik turar-joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash va qo‘riqlash bo‘yicha xizmatlarga (narxlarning o‘shish sur‘ati mos ravishda **7,6 %** va **13,5 %**) tegishli bo‘ldi.



2020- yil avgust



2021- yil avgust



2022- yil avgust

# “UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI, MAISHIY TEXNIKA VA TURAR JOYLARGA KUNDALIK XIZMAT KO‘RSATISH” BO‘LIMI (V) BO‘YICHA INI, % DA




o‘tgan oyga nisbatan




o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

o‘tgan yilning avgustiga nisbatan

## MEBEL, UY-RO‘ZG‘OR ASBOBLARI VA TUKLI GILAMLAR



## UY XO‘JALIKLARIDA ISHLATILADIGAN TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI



## MAISHIY ASBOBLAR



## SHISHA IDISHLAR, OVQATLANISH UCHUN ASBOBLAR VA UY-RO‘ZG‘OR ANJOMLARI



## KUNDALIK TURMUSHDA VA BOG‘DORCHILIKDA ISHLATILADIGAN ASBOBLAR VA MOSLAMALAR



## UY XO‘JALIGINI YURITISH BILAN BOG‘LIQ HOLDA ISHLATILUVCHI TOVARLAR VA XIZMATLAR



◆ 2020- yil avgust

◆ 2021- yil avgust

◆ 2022- yil avgust


# “SOG‘LIQNI SAQLASH” BO‘LIMI (VI) BO‘YICHA INI, % DA



## DORI VOSITALARI VA TIBBIYOT MAHSULOTLARI

### avgust


o‘tgan oyga nisbatan  
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan  
o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



## AMBULATORIYADA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR

### avgust


o‘tgan oyga nisbatan  
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan  
o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



## STATSIONARDA DAVOLASH BO‘YICHA XIZMATLAR

### avgust


o‘tgan oyga nisbatan  
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan  
o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



## SOG‘LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI BOSHQA XIZMATLAR

### avgust

o‘tgan oyga nisbatan  
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan  
o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



2022-yilning avgust oyida stomatologiya xizmatlari oy davomida **1,1 %** ga, diagnostika vizualizatsiyasi va tibbiy laboratoriyalar xizmatlari hamda dori vositalari va tibbiyot uchun mo‘ljallangan mahsulotlar **0,7 %** ga, stasionarda davolash xizmatlari va ko‘z uchun yordamchi vositalar **0,5 %** ga qimmatlashdi.

O‘tgan yilning dekabriga nisbatan narxlar oshishi bo‘yicha yetakchi o‘rin stomatologiya xizmatlariga (**12,4 %**) tegishli bo‘ldi. Ushbu xizmat turi yillik nisbatda ham narxlarning o‘shish sur‘ati (**17,0 %**) bo‘yicha birinchi o‘rinni saqlab qoldi.






# “TRANSPORT” BO‘LIMI (VII) BO‘YICHA INI, % DA





## TRANSPORT VOSITALARINI SOTIB OLISH

	 2020- yil	 2021- yil	 2022- yil
avgust			
o‘tgan oyga nisbatan	100,2	100,1	100,1
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	108,3	100,7	108,4
o‘tgan yilning avgustiga nisbatan		101,2	108,8

## SHAXSIY TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH

	 2020- yil	 2021- yil	 2022- yil
avgust			
o‘tgan oyga nisbatan	101,5	102,8	99,8
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	100,6	111,6	107,2
o‘tgan yilning avgustiga nisbatan		119,9	117,5

## YO‘LOVCHI TASHISH TRANSPORTI XIZMATLARI

	 2020- yil	 2021- yil	 2022- yil
avgust			
o‘tgan oyga nisbatan	101,3	100,1	100,6
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	106,3	103,0	103,9
o‘tgan yilning avgustiga nisbatan		108,1	107,3

## TOVARLARNI TASHISH BO‘YICHA XIZMATLAR

	 2020- yil	 2021- yil	 2022- yil
avgust			
o‘tgan oyga nisbatan	100,9	100,3	100,6
o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	105,2	103,6	102,6
o‘tgan yilning avgustiga nisbatan		108,2	107,0

Joriy yilning avgust oyida havo transportida yo‘lovchi tashish xizmatlari “Transport” bo‘limidagi tovarlar va xizmatlar orasida narxlar oshishi bo‘yicha yetakchi o‘ringa ko‘tarilib, oy davomida ularning narxlar o‘rtacha **2,1 %** ga oshdi. Uzoq masofaga qatnovchi poyezd uchun chiptalar ushbu davrda **1,4 %** ga qimmatlashdi.

O‘tgan yilning dekabriga nisbatan narxlarning oshishi bo‘yicha propan (**17,8 %**) yetakchilik qilmoqda.

Yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik benzina tegishli bo‘lib, 2021- yilning avgustiga nisbatan **34,8 %** ga qimmatlashgan.

# “AXBOROT VA ALOQA” BO‘LIMI (VIII) BO‘YICHA INI, % DA



## AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA USKUNALARI



## AXBOROT VA ALOQA SOHASIDAGI XIZMATLAR



“Axborot va aloqa” bo‘limida oy davomida boshqalarga nisbatan axborot va kommunikatsiya uskunalari ta‘mirlash bo‘yicha xizmatlar (**1,0%**) narxlari sezilarli darajada qimmatlashdi.

Ushbu xizmat turi o‘tgan yilning oxiriga nisbatan (**8,4%**) va yillik nisbatda ham (**15,7%**) narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik qildi.

# “DAM OLISH, SPORT VA MADANIYAT” BO‘LIMI (IX) BO‘YICHA INI, % DA



	o‘tgan oyga nisbatan	o‘tgan yilning dekabriga nisbatan	o‘tgan yilning avgustiga nisbatan
<b>DAM OLISHNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR</b>			
2020- yil avgust	100,0	101,0	
2021- yil avgust	100,6	106,3	110,2
2022- yil avgust	100,4	105,6	110,1
<b>MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH BO‘YICHA XIZMATLAR</b>			
2020- yil avgust	100,3	103,2	
2021- yil avgust	100,1	105,0	107,9
2022- yil avgust	100,4	107,0	112,4
<b>KOMPLEKS DAM OLISHNI TASHKIL ETISH</b>			
2020- yil avgust	100,1	102,3	
2021- yil avgust	100,4	103,2	103,9
2022- yil avgust	100,0	107,9	109,7
<b>BOG‘DORCHILIK MAHSULOTLARI VA UY HAYVONLARI</b>			
2020- yil avgust	100,6	105,5	
2021- yil avgust	99,0	99,7	102,5
2022- yil avgust	100,1	106,2	110,8
<b>GAZETALAR, KITOBLAR VA KANSELYARIYA TOVARLARI</b>			
2020- yil avgust	100,4	105,5	
2021- yil avgust	101,2	104,7	109,7
2022- yil avgust	102,5	124,6	129,3
<b>DAM OLISH UCHUN BOSHQA TOVARLAR</b>			
2020- yil avgust	100,5	103,3	
2021- yil avgust	100,7	103,1	106,6
2022- yil avgust	100,6	106,8	110,1

2022- yilning avgust oyida kanselyariya va rassomchilik tovarlari respublika bo‘yicha o‘rtacha **3,4 %** ga qimmatlashdi. Narxlarning oy davomidagi bir foizlik o‘shish sur‘ati chegarasidan shuningdek, foto-graflar (**1,3 %**) va istirohat bog‘lari (**1,1 %**) xizmatlari oshib o‘tdi.


2022- yilning yanvar-avgustida narxlar oshishi bo‘yicha yetakchi o‘ringa kanselyariya va rassomchilik tovarlari (**1,3** barobar) hamda gazetalar va davriy nashrlar (**23,2 %**) ko‘tarildilar.

Ushbu guruhlar yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha ham yetakchilik qilib, mos ravishda **35,8 %** va **24,3 %** ga qimmatlashdi.


# “TA’LIM SOHASIDAGI XIZMATLAR ” BO’LIMI (X) BO’YICHA INI, % DA




## MAKTABGACHA VA BOSHLANG’ICH TA’LIM



## OLIY TA'LIM



## BOSQICHLARGA BO'LINMAGAN TA'LIM



Maktabgacha ta'lim sohasida joriy yilning avgustida xususiy bolalar bog'chasi uchun to'lovlar miqdorida oshish (respublika bo'yicha o'rtacha **1,0 %**) qayd etildi. Ta'lim kurslarida o'qish oy davomida **1,1 %** ga, repetitorlar xizmatlari **0,8 %** ga qimmatlashdi.

2022- yilning yanvar-avgustida narxlar oshishi bo'yicha yetakchi o'rinlar ta'lim kurslarida o'qitish (**6,9 %**) va repetitorlar (**4,0 %**) xizmatlariga tegishli bo'ldi.

Yillik nisbatda narxlar oshishi bo'yicha yetakchi uchlikdan ta'lim kurslarida o'qitish (**15,8 %**), shartnoma asosida davlat OTMda o'qitish (**11,1 %**) va repetitorlar xizmatlari (**10,3 %**) o'rin egalladi.



2020- yil avgust



2021- yil avgust



2022- yil avgust



# “RESTORANLAR VA MEHMONXONALAR XIZMATLARI” BO‘LIMI (XI) BO‘YICHA INI, % DA



◆ 2020- yil avgust   
 ◆ 2021- yil avgust   
 ◆ 2022- yil avgust

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI VA ICHIMLIKLARNI YETKAZIB BERISH BO‘YICHA XIZMATLAR


o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



## MEHMONXONALAR XIZMATLARI


o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



Kafe, oshxonalar va tez pishar taomlar tayyorlanadigan oshxonalaridagi tayyor taomlar joriy yilning avgust oyida oy davomida **2,1-2,3 %** atrofida qimmatlashib, ushbu guruh bo‘yicha 2022- yilning yanvar-avgustidagi o‘rtacha oylik ko‘rsatkichdan (**1,4 %**) yuqoriroq bo‘ldi. Mehmonxonalar xizmatlari atigi **0,5 %** ga qimmatlashdi.

O‘tgan yilning oxiriga nisbatan bo‘limda boshqalarga nisbatan dam olish markazlari (**15,3 %**) va tez pishar taomlar tayyorlovchi oshxonalar (**13,0 %**) xizmatlari yuqoriroq qimmatlashdi. O‘tgan yilning avgustiga nisbatan narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilik dam olish markazlari va shunga o‘xshash mehmonxonalar xizmatlariga (**16,2 %**) tegishli bo‘ldi.

# “SUG‘URTALASH VA MOLIYAVIY XIZMATLAR” BO‘LIMI (XII) BO‘YICHA INI, % DA

◆ 2020- yil avgust   
 ◆ 2021- yil avgust   
 ◆ 2022- yil avgust

## SUG‘URTA


o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



## MOLIYAVIY XIZMATLAR

o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



Sug‘urta xizmatlari narxlari joriy yilning avgust oyida oylik nisbatda ham, yillik nisbatda ham o‘zgarishsiz qoldi.

Moliyaviy xizmatlar orasida joriy yilning avgustida pul o‘tkazmalari (**-0,4 %**) uchun to‘lov miqdorida pasayish qayd etilib, bu holat milliy valyutaning AQSH dollariga nisbatan kursining o‘zgarishi bilan izohlanadi.

2022- yilning boshidan elektron to‘lov tizimlari orqali to‘lovlarni amalga oshirish xizmatlari narxlari **17,7 %** ga, bank muassasalari xizmatlari **6,6 %** ga, pul o‘tkazmalari **0,6 %** ga qimmatlashdi.

Yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilikni elektron to‘lov tizimlari orqali to‘lovlarni amalga oshirish xizmatlari (**17,7 %**) saqlab qoldi.

# “MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR, IJTIMOYIY HIMOYA VA TURLI TOVARLAR VA XIZMATLAR” BO‘LIMI (XIII) BO‘YICHA INI, % DA

◆ 2020- yil avgust    ◆ 2021- yil avgust    ◆ 2022- yil avgust



## MAISHIY TOVARLAR VA XIZMATLAR

2020- yil avgust



o‘tgan oyga nisbatan

**100,6**

2021- yil avgust



o‘tgan oyga nisbatan

**100,5**

2022- yil avgust



o‘tgan oyga nisbatan

**101,0**

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

**106,9**

**106,5**

**111,0**

o‘tgan yilning avgustiga nisbatan

**111,6**

**116,2**

## SHAXSIY FOYDALANISH UCHUN BOSHQA PREDMETLAR

2020- yil avgust



o‘tgan oyga nisbatan

**100,5**

2021- yil avgust



o‘tgan oyga nisbatan

**100,5**

2022- yil avgust



o‘tgan oyga nisbatan

**100,8**

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

**103,8**

**103,1**

**106,5**

o‘tgan yilning avgustiga nisbatan

**108,4**

**109,6**

## BOSHQA XIZMATLAR

2020- yil avgust



o‘tgan oyga nisbatan

**100,2**

2021- yil avgust



o‘tgan oyga nisbatan

**100,1**

2022- yil avgust



o‘tgan oyga nisbatan

**100,4**

o‘tgan yilning dekabriga nisbatan

**103,4**

**110,4**

**108,4**

o‘tgan yilning avgustiga nisbatan

**111,0**

**116,3**


2022- yilning avgustida ushbu bo‘lim tovarlar va xizmatlari orasida oy davomida narxlar oshishi bo‘yicha yetakchilikni sartaroshxonalar va nusxa ko‘chirish (kserokopiya) (**1,6% dan**) xizmatlari bo‘lishib oldi.

Joriy yil boshidan narxlarning eng yuqori o‘shish sur‘ati hujjatlardan nusxa ko‘chirish (kserokopiya) (**25,5%**) xizmatlarida qayd etildi.


Ushbu xizmat turi yillik nisbatda narxlar oshishi bo‘yicha ham (**35,2%**) yetakchi bo‘ldi.

2022- YIL AVGUST OYIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BO‘YICHA O‘ZR MIIT – 2018 BO‘LIMLARI KESIMIDA  
TOVARLAR VA XIZMATLAR NARXLARI O‘ZGARISHINING  
YIG‘MA INI O‘SISHI (PASAYISHI)GA TA‘SIRI, F.D.


o‘tgan oyga nisbatan



o‘tgan yilning dekabriga nisbatan



o‘tgan yilning avgustiga nisbatan



“Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar” I bo‘limi qisqa muddatli yig‘ma INI o‘shish sur‘atiga ham, 2021- yilning dekabr va avgust oylariga nisbatan ko‘rsatkichlarning o‘shish sur‘atiga ham ta‘siri bo‘yicha yetakchilikni saqlab qoldi.

- |   |  |
|---|--|
| Oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar                                     | Transport  |
| Spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari  | Axborot va aloqa   |
| Kiyim va poyabzal   | Dam olish, sport va madaniyat                              |
| Turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari                   | Ta‘lim   |
| Uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish | Restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari                    |
| Sog‘liqni saqlash   | Sug‘urta va moliyaviy xizmatlar                            |
|   | Maishiy tovarlar va xizmatlar, turli tovarlar va xizmatlar |





**Iste'mol narxlari indeksi (INI)** bu – iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini ifodalaydigan muhim ko'rsatkichlardan biri. U o'rtacha iste'molchi tomonidan yakuniy iste'mol uchun sotib olingan tovarlar va xizmatlar o'zgarish majmui qiymatining o'zgarishini ifodalaydi.

Respublikada INIning hisoblash 1994- yilda XVJning texnik ko'magi ostida joriy qilingan.

INIning shakllantirishga "Iste'mol narxlari indeksi bo'yicha qo'llanma: Nazariya va amaliyot" (XVJ, IHRT, YHSB (Yevrostat), BMT, YIK, Butunjahon banki va XMT) tavsiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan Tovarlar va xizmatlarning iste'mol narxlari (tariflari) kuzatuvini tashkil etish hamda iste'mol narxlari indeksini hisoblash bo'yicha uslubiy nizom (Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 30- noyabrdagi 46-son qarori bilan yangi tahriri tasdiqlangan) asos bo'lib xizmat qiladi. <https://lib.stat.uz>

INIning shakllantirish ikkita ma'lumotlar manbasi asosida amalga oshiriladi:

1) uy xo'jaliklarida o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvlar ma'lumotlari asosida shakllanadigan aholining iste'mol xarajatlari tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar;

2) hududlar, savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari, namuna tovarlar tanlanmasi doirasida narxlarni qayd etish ma'lumotlari.

Tasdiqlangan Uslubiy nizomga muvofiq, narxlarni ro'yxatga olish har oyning **10-** sanasidan **20-** sanasigacha amalga oshiriladi. Ma'lumotlarni yig'ish shunday tashkil etilganki, bu vaqt oralig'ida narxlarni ro'yxatga olish har bir tovar va xizmat bo'yicha bir marta amalga oshiriladi va qo'shni davrlar uchun ro'yxatga olish oralig'i bir kalendar oyni tashkil qiladi. O'rtacha narxlar darajasiga ko'plab omillar, jumladan, assortiment va hududiy siljishlar ta'sir qiladi. INIning hisoblashda faqatgina inflyatsiya omillarini aniqlash uchun ushbu omillarning ta'siri chiqarib tashlanadi.

Narxlar o'zgarishini kuzatish uchun tovarlar va xizmatlar to'plamiga aholi xarajatlari tarkibidagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va vakilligini hisobga olgan holda tanlab olingan **510 ta** mahsulot kiradi.

Har oyda **10 mingdan** ortiq savdo va xizmat ko'rsatish obyektlari kuzatiladi, **110 mingdan** ortiq narx kotirovkalari qayd etiladi.

